



bugun tashqarida

Mening maktabim. Mening sinfim



Maktab – bilim oladigan o'quv muassasasi.

Bilimlar maskani maktabim mening,
Birinchi sinf men uchun oilam kabi.
Shirinso'z, mehribon ustozlarimning,
Sabog'i-yu, do'stlarim – qiziqdir bari!



Maktabimizda ko'plab keng **o'quv xonalari**,
ko'rkam katta **majlislar zali**, **shinam ovqatlanish**
xonasi va keng **sport zali** mavjud.



Maktabda o'zni tutish qoidalari haqida gapirib bering.



Rasmga qarang. Rasmdagi predmetlar sizning
sinfingizdagi predmetlardan qanday farq qiladi? Ularning
o'xshash tomonlarini toping.






Kun tartibi biz har kuni hayotimizda amal qilishimiz kerak bo'lgan tartibdir.



Men **kun tartibiga** rioya qilaman. Uyqudan uyg'onib, tishlarimni yuvaman, nonushta qilaman va maktabga boraman. Darslar tugaganidan keyin tushlik qilaman, uy vazifasini bajaraman, o'ynayman, kechki ovqatni yeyman va har kuni bir vaqtda uxlayman. Shunday qilib, **kun tartibi** tufayli men barcha muhim ishlarni bajarishga va vaqtida dam olishga ulguraman.



Rasmlarga qarang. To'g'ri ketma-ketlikni ko'rsating. O'z kun tartibingiz haqida so'zlab bering.

